BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATGA KASBIY TAYYORGARLIKNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Toshev Salimjon Nurboboyevich - Shahrisabz davlat pedagogika institutisi o‘qituvchisi
Gmail: salimtoshev053@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarlikning pedagogik yondashuvlari, fizika fani o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini o‘ziga xos xususiyatlari jarayonining pedagogik asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. innovatsiya, metodik, kasbiy, pedagogik texnologiyalar, muammoli texnologiyalari, interfaol metodlar.

Fizika o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorgarlikning zamonaviy tadqiqot ishlar kasbiy faoliyatning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion sohalarning aloqadorligini inobatga oluvchi shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosida olib boriladi. V.A.Slastenin pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlikni ko‘rib chiqishda funksional ravishda quyidagilarni ajratadi:

1) psixologik tayyorlik, ya'ni pedagogik faoliyatga shakllangan (turli darajada) yo‘nalganlik, maktabda ishlash;

2) ilmiy-nazariy tayyorgarlik, ya'ni kompetent pedagogik faoliyat uchun talab etiladigan ijtimoiy-siyosiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy bilimlarning zaruriy hajmi mavjudligi;

3) amaliy tayyorgarlik, ya'ni talab etilgan darajada shakllangan kasbiy ko‘nikma va malakalar mavjudligi;

4) psixologik-fiziologik tayyorgarlik, ya'ni pedagogik faoliyat va ma'lum mutaxassislikni egallash uchun mos shart-sharoitlar mavjudligi, kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarning shakllanganligi;

5) jismoniy tayyorgarlik, ya'ni salomatlik holati va jismoniy rivojlanishning pedagogik faoliyat va kasbiy ishlash qobiliyati talablariga mosligi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi - bu mustaqil, maqsadga yo‘naltirilgan, bosqichma-bosqich ravishda ehtiyojli-motivatsion soha asosida o‘zining pedagogik vaziyatini o‘zgartirishning barqarorligi va zarurligiga ko‘ra turli usullar bilan loyihali obrazga erishish bo‘yicha pedagogik shaxsiy faoliyat va unga tuzatishlar kiritishni amalga oshirishdan iborat.

Fizika o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligi asosiy ko‘rsatkichlaridan biri pedagogning quyidagi jihatlari bilan bog‘liq bo‘lgan sifatlari shakllanganligi hisoblanadi:

1) pedagogik faoliyat ijobiy natijalarining barqarorligi (A.K.Markova);

2) yangi ish shakllari va metodlaridan tizimli foydalanish (O.A.Izosimova);

3) talabalar bilan hamkorlikdagi ijodiy faoliyat tajribasi (V.Lyaudis);

4) kasbiy malakani tizimli oshirish (A.K.Markova);

5) pedagogik tadqiqotchilik faoliyatini metodlarini egallaganlik (V.Maksimova);

6) stressga bardoshlilik, o‘z-o‘zini boshqarish (G.S.Suxobskaya);

Shu tariqa, o‘qituvchi innovatsion faoliyatga tayyorgarligining barcha sanab o‘tilgan kasbiy-shaxsiy sifatlari tayyorgarlik motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional kabi 3 ta komponentiga tizimlashtirilgan. Bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini o‘rganishning nazariy va metodologik asoslarini innovatsion xususiyatga ega bo‘lgan innovatsion faoliyat tuzilishi bilan bog‘liq. Innovatsion faoliyat tuzilishi o‘qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlashning komponenti sifatida shakllantirish quyidagi shart-sharoitlarga bog‘liq:

• pedagogik niyatning yuzaga kelish vaqti (ma'lumki, pedagogda yuzaga keladigan har qanday niyat ham emas, balki biron-bir pedagogning muayyan rivojlanish darajasi, pedagogik muammoni to‘g‘ri idrok etish qobiliyatining darajasidagi pedagogik vaziyati bilan bog‘liq bo‘lgan);

• niyatni uning butun turli-tumanligida ishlab chiqish, o‘qituvchining kreativ fikrlashni namoyon etish qobiliyati va mavjud variantlar o‘rtasidagi yuzaga keladigan ziddiyatlarni qisqa muddatlarda optimal hal etishning usullari, ehtimoliy yo‘llarini taklif etishga bog‘liq bo‘lgan muayyan pedagogik muammo yechimining mumkin bo‘lgan variantlarini taklif etish;

• pedagog niyatining amaliy ro‘yobga chiqarish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lgan, niyatni faoliyatda amalga oshirish jarayonida pedagogning barqarorligi (ya'ni niyat va uni amalga oshirish o‘rtasidagi, o‘qituvchi faoliyatining mazmunli yoki natijali tomonlaridagi o‘zgarishlar sababli yuzaga kelgan, muqarrar ziddiyatga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati to‘g‘risida gap bormoqda);

• dastlabki niyat (niyatning boshlanishi nuqtasi) va uni faoliyatda amalga oshirish (natijada, ifodalangan niyatning yakunlanish nuqtasi) o‘rtasidagi aloqaning saqlanganligi, bunda natija niyatni amalga oshirishning yakunlanishi sifatida uning boshi bilan bog‘liq bo‘lishi, niyat va natijaning mos tushishi yoki mos tushmasligi aloqaning saylanganligi darajasini ko‘rsatadi va bir vaqtda ularning dinamik rivojlanishidagi farqlarni ko‘rsatadi, bu esa niyatning faoliyatda sifat ko‘rinishida amalga oshirish darajasi ko‘rsatkichi sifatida xizmat qilishi mumkin bo‘lib, usiz barqaror hodisa sifatida tushuniladigan innovatsion faoliyat ifodalanishi va belgilanishi mumkin emas;

• o‘qituvchi niyatining saqlanganligi va barqarorligiga bog‘liq ravishda niyatni amalga oshirish natijasi ifodalanganligi va talaba niyatining saqlanganligi (uning talaba tomonidan qabul qilinishi) va barqarorligi (uning faoliyatga aylanishi) bilan bog‘liqligi imkoniyati – bunda o‘qituvchi faoliyati talaba faoliyati bilan aloqadorligining adekvatligi to‘g‘risida gap boradi;

• mazkur holatda biz innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligining ifodalanganligi va belgilanganligi yana bir barqaror ko‘rsatkichi - o‘qituvchining innovatsion jarayoni va talaba ijodiy jarayonining aloqadorligi to‘g‘risida aytish mumkin.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida fizika o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga tayyorgarligining asosiy ko‘rsatkichlarini ajratish mumkin:

1. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi - o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining ijtimoiypsixologik tavsiflari. Fizika o‘qituvchisi sifatlarining bunday tavsiflari uning axloqiy-siyosiy, umummadaniy va psixologik-pedagogik tayyorgarligi bilan belgilanadi. Mazkur umumiylik asosida - o‘qituvchining ijtimoiy hayotga, madaniyatga, o‘zining kasbiga va o‘z-o‘ziga fuqarolik munosabati yotadi.

O‘qituvchining shaxsi kasbiy-pedagogik yo‘nalganlik, pedagogik faoliyatga ehtiyoj bilan tavsiflanadi. O‘qituvchiga quyidagi shakllantirilishi mumkin bo‘lgan kasbiy sifatlar zarur: talabaga shaxs sifatidagi qiziqish, uning qiziqishlari va xususiyatlarini o‘rganish va tushunish ko‘nikmasi, pedagogik kuzatuvchanlik; muloqotchanlik (kommunikabellik), tasavvur, pedagogik axloq; tashkiliy ko‘nikmalar; keng ma'naviy qiziqishlar, bilishga oid ehtiyojlar, ijtimoiy muammolarni tushunish; ta'limning umumiy ishiga, maktab pedagogik jamoasining ma'naviy-psixologik farovon muhitiga qiziqish.

O‘tiladigan fanlarining yuqori murakkablik darajasi, ularni mukammal bilish, fikrlash va nutq madaniyati o‘qituvchi uchun nafaqat bolalar bilan o‘quv-tarbiya ishlarini o‘tkazish uchun, balki talabalarning hurmatlarini, izlash keng doirasini, bashoratlash ko‘nikmasini, talabalarni o‘qitish va tarbiyalashning shaxsiy, o‘ziga xos metodini izlashni ta'minlovchi shaxsiy sifatlar tariqasida ham zarurdir.

Bo‘lajak fizika o‘qituvchi izlanuvchan, andozalar bilan qoniqmaydigan shaxs sifatida tavsiflanadi. Barcha holatlar uchun majburiy bo‘lgan ta'lim va tarbiyaning yagona metodikasi mavjud emas: har bir o‘qituvchi novator bo‘lishi, uning shaxsiy sifatlariga javob beradigan o‘z yondashuvlarini topishi mumkin. Kasbiy mahoratni egallash faqatgina inson to‘g‘risidagi, talaba to‘g‘risidagi bilimlar boyligini chuqur, har tomonlama egallash asosida hosil bo‘lishi mumkin - psixologiya, falsafa, pedagogika turli o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi. Yuqori pedagogik madaniyat o‘qituvchiga ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari, metodlari, vositalarini kompetentli

tanlash imkonini beradi va bu o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish asosida yotadi.

Fizika o‘qituvchisi o‘z kasbi uchun apatiya, talabalarni o‘qitish va tarbiyalashdagi rasmiyatchilik, ularga va ularning taqdirlariga befarqlik, jizzakilik, yengiltaklik, qarorlarni qabul qilishda, xulq-atvordagi shoshqaloqlik va o‘ylanmaslik kabi mumkin bo‘lmagan shaxsiy sifatlarni yengadi.

Demak, fizika o‘qituvchisining innovatsion faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni amaliy ishda inobatga olish bir tomondan majburiy hisoblanadi va boshqa tomondan - ularni bilish o‘qituvchiga innovatsion yo‘nalishlar va texnologiyalar ko‘rinishlarini tushunishiga, o‘zi uchun shaxsiy individual ish metodini izlash uchun va aniq ijodiy pedagogik faoliyat maydonini aniqlash imkon beradi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. - Toshkent, 2019. - №5 (78). - Б. 34-37. (13.00.00; №10)

2. Kuychiyeva M.A. Tabiiy fanlar o‘qituvchilarining kompetentligi va kasbiy layoqatini rivojlantirish masalalari // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari. - Toshkent, 2021. - №1-son. - B. 53-57. (13.00.00; №32).

3. Methods of increasing the heuristic activity of students in teaching physics Toshev Salimjon Nurboboevich Shakhrisabz State Pedagogical Institute https://doi.org/10.5281/zenodo.10155108*243-249 b.*

4. Fizika darslarida “Yarimo‘tkazgichlar” mavzusini o‘qitishda talabalarni evristik faolligini rivojlantirish metodikasi. Mirzo Ulug‘bek nomidagi o‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali Toshev Salimjon Nurboboevich 1.11.2023yil*263-266 b.*

5. Jalolova P.M. Hydrogen atom: quantum numbers, energy spectrum, orbital impulse momentum and its spatial quantization // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – Germany, 2021. – Vol. 1. – No. 2. – P.1-4. (13.00.00 №7)

6. Jalolova P.M. Theoretical-methodological aspects of quantum physics section in the credit module system // Solid state technology. – Egypet, 2020. – Vol. 63. – № 6. – P. 152-158 Year: (Scopus).

7. Treninglar o‘quv dasturi “Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan tayanch maktablar uchun” Metodik tavsiya. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi. Toshkent – 2021